



## **HOZIRGI ZAMONDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

*Navoiy viloyati, Nurota tuman 27-umumta'lism maktabi psixologi*

*Murodova Aziza*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan psixologlarning vazifalari, roli va ta'sir doirasi milliy mentalitetimizga mos yondashuvda tahlil qilinadi. O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida, ijtimoiy-psixologik moslashuvida, muammoli holatlarni hal etishda psixologning kasbiy yondashuvi va maktabdagi ko'p tomonlama hamkorlik tizimidagi o'rni chuqur o'rganiladi. Mavzuga oid tavsiyalar va real hayotiy vaziyatlar asosida yechimlar ham taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** maktab psixologi, o'quvchi shaxsi, psixoprofilaktika, diagnostika, muammoli xatti-harakat, zamonaviy tahdidlar, psixologik muhit.

### **Kirish**

O'zbekiston bugungi kunda bilimli, ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom, sog'lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu yuksak maqsadga erishishda ta'lism tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan umumta'lim maktablarining ahamiyati beqiyosdir. Har bir o'quvchi o'zining yoshiga xos psixologik ehtiyojlar va rivojlanish bosqichlaridan o'tadi. Bu jarayonda u nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiylashadi, hissiy-intellektual salohiyatini shakllantiradi. Mazkur jarayonlarda esa psixologning ishtiroki muhimdir.

Bugungi zamon murakkab va o'zgaruvchan. Axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy muammolar, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi qiyinchiliklar — bularning barchasi bolada turli psixologik zo'riqishlar keltirib



chiqaradi. Shu bois, zamonaviy maktab psixologini bu muammolarning oldini olishda va ularga yechim topishda markaziy figura bo'lib qolmoqda.

### **Asosiy qism**

Maktab psixologining kasbiy faoliyati turli yo'nalishlarni qamrab oladi. Ular quyidagilar:

#### *1. Psixodiagnostika*

Psixodiagnostika – bu o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganish, uning ruhiy holati, intellektual darajasi, ijtimoiy moslashuvini aniqlashga xizmat qiladi. Diagnostik testlar, so'rovnomalar, suhbatlar orqali o'quvchining stress darajasi, tajovuzkorligi, o'ziga bahosi aniqlanadi.

Misol: Psixolog tomonidan 7-sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan "Tashvish darajasi" testi natijasida 23% o'quvchi sinovlardan qo'rquv yoki otanonning bosimi tufayli tashvishli holatda bo'lishi aniqlandi. Bu esa darslardagi passivlikka olib kelgan.

#### *2. Psixoprofilaktika*

Profilaktika – bu muammolarni erta aniqlab, ularning rivojlanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir. Maktab psixologlari yoshga mos psixoprofilaktik treninglar, suhbatlar, videoroliklar orqali bolalarni do'stlik, empatiya, o'zini tutish madaniyati kabi jihatlarga o'rgatadi.

Tavsiyalar:

Har oyda 1 marotaba sinf bo'yicha "Do'stlik va hurmat" mavzusida psixotreninglar o'tkazilishi. Psixologik devoriy gazetalar chiqarish orqali o'quvchilarning psixologik savodxonligini oshirish.

#### *3. Korreksion (tuzatuvchi) ishlar*

Xulqidagi salbiy o'zgarishlar, sababsiz dars qoldirishlar, sinfdoshlar bilan mojarolar — bular korreksion ishlar orqali yo'naltiriladi. Psixolog muammoli



o‘quvchining oilasi bilan alohida ishlaydi, o‘qituvchilar bilan maslahatlashadi. Amaliy misol: 5-sinf o‘quvchisi darsda doimiy ravishda tinch o‘tirmasligi, bezorilik qilishi kuzatildi. Psixolog uning oilaviy sharoitini o‘rgandi: ota chet elda, onasi ishda band. Bola e’tibor yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan edi. Psixolog 2 oy davomida suhbatlar, rolli o‘yinlar orqali uni tinchlantirishga erishdi.

#### *4. Konsultatsiya (maslahat) ishlari*

Ota-onalar va o‘qituvchilar ko‘pincha bolalarning psixologik holatini to‘g‘ri anglamasligi mumkin. Shu bois psixologning maslahatlari bu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Ko‘p beriladigan savollar: "Bolangiz darsga borishni istamayapti, nima qilish kerak?" "Qizim internetga juda bog‘lanib qolgan, nima tavsiya qilasiz?" "O‘g‘limning do‘sti yo‘q, bezovtaman." Psixolog bu savollarga individual yondashadi, sabr va tushuncha asosida maslahat beradi.

#### *5. Tarbiyaviy ishlarda ishtirok*

Maktab tadbirlari, ota-onalar yig‘ilishlari, seminar-treninglarda psixologning faol ishtiroki — tarbiyaning sifatini oshiradi. Ayniqsa, zo‘ravonlik, internetga qaramlik, erta jinsiy tarbiya mavzularida psixologik treninglar ayni muddaodir.

### **Xulosa**

Zamonaviy maktab hayotini psixologsizlik tasavvur qilish qiyin. U o‘quvchining yuragiga quloq soladigan, unga yo‘l ko‘rsatadigan, qiyin paytda yordam qo‘lini cho‘zadigan insondir. Har bir maktab psixologi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini metodik jihatdan boyitish – jamiyatimiz ruhiy salomatligiga qo‘yilgan eng muhim investitsiyadir.

Maktab psixologi – bu nafaqat kasb, balki fidoyilik, sabr va mehr talab qiladigan faoliyatdir. Har bir farzand qalbini tushunadigan, uning his-tuyg‘ulariga

e'tibor qaratadigan psixolog bo'lsa, maktabda zo'ravonlik, tajovuz, tushkunlik kabi muammolar ancha kamayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-sentabrdagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. Karimova N. "Bolalar psixologiyasi", Toshkent, 2020.
4. Ergashev S. "Zamonaviy psixologiya asoslari", Toshkent, 2021.
5. "Psixologik xizmat faoliyati bo'yicha metodik qo'llanma", TTJ, 2022.
6. OECD: "Mental health in schools", 2021.